ISNN 3030-3907

2026/3
VOLUME 5

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/3 VOLUME 5

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

ADABIY TA’LIM JARAYONIDA BADIIY MATN USTIDA ISHLASHDA ZAMONAVIY METOD VA USLUBLAR

Abdujabborova Nilufar Rustamjon qizi
NamDPI O‘zbek tii va adabiyoti yo‘nalishi talabasi
Email:abdujabborovanilufar1214@gmail.com
Tel:+998952430398
Tillayeva Rayhona Tuxtasinovna
NamDPI pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Ilmiy rahbar

Annotatsiya. Maqolada adabiy ta’lim jarayonida badiiy matn ustida ishlashning zamonaviy metod va uslublari chuqur ilmiy tahlil etiladi. Muammoli ta’lim, hamkorlik texnologiyasi, interfaol metodlar, suhbat, evristik va taqqoslash metodlarining o‘zbek adabiyoti ta’limidagi qo‘llanilish imkoniyatlari va pedagogik-psixologik asoslari ochib beriladi. Shu bilan birga, ushbu metodlar adabiy ta’limning ma’naviy-tarbiyaviy vazifasini to‘laqonli amalga oshirish, talabada kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va uning shaxsiy kamolotiga ko‘maklashish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar. adabiy ta’lim, badiiy matn tahlili, zamonaviy metodlar, muammoli ta’lim, hamkorlik texnologiyasi, interfaol metodlar, mustaqil fikrlash, kitobxonlik madaniyati, pedagogik innovatsiya, kompetentlilik.

Abstract. The article provides a profound scientific analysis of modern methods and techniques used in working with literary texts within the educational process. It explores the pedagogical and psychological foundations of applying problem-based learning, collaborative technologies, interactive methods, dialogue-based instruction, and heuristic and comparative methods in Uzbek literature education. Furthermore, these methods enable the full realization of the spiritual and educational goals of literary education, fostering a culture of reading in students and supporting their personal development.

Keywords: literary education, literary text analysis, modern methods, problem-based learning, collaborative technology, interactive methods, independent thinking, reading culture, pedagogical innovation, competence.

Аннотация. В статье дается глубокий научный анализ современных методов и приемов работы с художественным текстом в процессе литературного образования. Раскрываются возможности применения и психолого-педагогические основы проблемного обучения, технологий сотрудничества, интерактивных методов, беседы, эвристических и сравнительных методов в обучении узбекской литературе. Вместе с тем, данные методы позволяют полноценно реализовать духовно-просветительскую задачу литературного

ISSN 3030-3907

образования, сформировать культуру чтения у учащихся и способствовать их личностному совершенствованию.

Ключевые слова: литературное образование, анализ художественного текста, современные методы, проблемное обучение, технология сотрудничества, интерактивные методы, самостоятельное мышление, культура чтения, педагогическая инновация, компетентность.

KIRISH

Bugungi kunda adabiy ta’limning bosh maqsadi shunchaki ma’lumot berish emas, balki “kitobxon shaxs”ni shakllantirishdir. Professor Qozoqboy Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, adabiyot darsi — san’at darsidir va u o‘quvchidan ijodiy tafakkurni talab etadi. Zamonaviy axborot oqimi sharoitida talabalarning badiiy matn bilan bevosita muloqotini tashkil etish, ularda matn osti ma’nolarini chaqish (dekodlashtirish) ko‘nikmasini shakllantirish zarurati tug‘ilmoqda. Tadqiqotning maqsadi — badiiy matn tahlilida qo‘llaniladigan zamonaviy metodlarning ilmiy-metodik imkoniyatlarini tizimlashtirish va ularning amaliy samaradorligini isbotlashdan iborat. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy metod va uslublarni ta’lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish o‘quv jarayonini samarali, boy va qiziqarli qilishda markaziy ahamiyatga ega.

Adabiy matnning asosiy xususiyati — bu muallifning mahorati bo‘lib, u madaniy va ma’naviy sohaga bevosita bog‘liq. Shu sababli matn faqat shu sohaning parametrlari doirasida tahlil va baholanishi mumkin. Adabiy matn o‘ziga xos xususiyatlarga ega kommunikativ vosita sifatida xizmat qiladi: kompozitsion tuzilishi, til orqali amalga oshirilgan badiiy hodisa sifatidagi maqomi, poetik tilning ustuvorligi, yagona belgilashning ko‘p ma’noliligi, har o'qilganda qayta qurilishi va o‘zgartirilishi, maqsadli auditoriyasini o‘z ichiga olishi, referentsial bo‘lmagan tabiati, talqin va o‘zgartirish imkoniyati, o‘ziga xos voqelikni yaratishi — bular adabiy matnning o‘ziga xos belgilaridir. Badiiy matn ustida ishlash adabiy ta’limning asosiy shakli hisoblanadi va uning samaradorligi ko‘p jihatdan qo‘llaniladigan metod va uslublarga bog‘liq. An’anaviy ta’limda matn bilan ishlash ko‘pincha tayyor xulosalarni o‘zlashtirish va takror so‘zlash bilan chegaralanib qolgan. Natijada talaba na asarning badiiy mazmuniga chuqur kirib boradi, na o‘z shaxsiy munosabatini shakllantira oladi. Bu holat esa adabiy ta’limning eng muhim vazifasini — badiiy asarlar orqali shaxsni ma’naviy tarbiyalashni ikkinchi o‘ringa surib qo‘yadi.

O‘zbek adabiyoti ta’limini zamonaviylashtirish masalasi U.Dolimov, A.Zunnunov, Q.Yo‘ldoshev, S.Matjonov, M.Mirqosimova, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, V.Qodirov kabi yirik olimlarning asarlarida keng tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlar adabiyot ta’limidagi pedagogik yondashuvlarni yangilash,

ISSN 3030-3907

talabalarning adabiy tahlil ko‘nikmalarini oshirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan. Biroq zamonaviy metodlarning aniq qo‘llanilish modellari va o‘zbek adabiyoti materiali misolida ularning samaradorligi masalasi hali yetarlicha yoritilmagan — bu esa tadqiqotimizning dolzarbligini belgilaydi.

Interfaol metodlar — guruh ishlari, muammoli ta’lim, hamkorlik texnologiyasi — adabiy ta’lim jarayonini qiziqarli, motivatsion va samarali qiladi. Talabalarning o‘z fikrini erkin ifoda etishi, syujet va obrazlarni tahlil qilishi, matnlarni interpretatsiya qilishi, ijodiy yondashuv va tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, zamonaviy metodlar talabada kitobxonlik madaniyatini shakllantiradi — adabiy matn bilan munosabatni hayotiy zaruriyatga aylantiradi. Ushbu maqola ana shu masalani chuqur ilmiy tahlil etishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyot o‘qitish metodikasi sohasida o‘zbek olimlari tomonidan qator muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan. Husanboyeva va Niyozmetova (2018) “Adabiyot o‘qitish metodikasi” darsligida bu fanning ob’ekti uzluksiz ta’lim tizimidagi adabiyot darslari, predmeti esa badiiy adabiyot o‘qitilishiga doir didaktik ashyolar va qonuniyatlar ekanligi ko‘rsatiladi. Mualliflar adabiy ta’limning asosiy maqsadini bilim berishdan emas, balki shaxsning ma’naviy jihatdan shakllanishiga ko‘maklashishdan iborat deb belgilaydi. Bu tamoyil zamonaviy metodlarning joriy etilishi uchun nazariy asos vazifasini o‘taydi.

Safo Matjonov o‘zbek metodika ilmida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish nazariyasini ishlab chiqqan olim sifatida alohida o‘rin tutadi. Uning ta’limotiga ko‘ra, badiiy asar bilan ishlash — bu faqat matn mazmunini o‘zlashtirishgina emas, balki kitobxonning o‘z ichki dunyosini boyitish jarayonidir. Matjonov ta’kidlaydi: darslik va o‘quv qo‘llanmalaridan farqli o‘laroq, badiiy asar o‘quvchining his-tuyg‘ulariga ta’sir etib, loqaydlikni faol munosabatga aylantiradi — bu esa bilimni chuqur o‘zlashtirishning psixologik shartidir. Shu sababli adabiy ta’limning birinchi vazifasi mutolaa madaniyatini shakllantirish, ya’ni o‘quvchini maqsadli va ongli o‘qishga o‘rgatishdir.

Xalqaro pedagogika sohasida muammoli ta’lim nazariyasi V.Okon, M.Maxmutov, A.Matyushkin kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ularning tadqiqotlari shuni isbotlaydiki: bilim tayyor holda berilganda emas, balki kitobxon uni muammo yechish jarayonida o‘zi kashf etganda barqaror va chuqur o‘zlashtiriladi. Hamkorlik texnologiyasining psixologik asosi esa Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga tayanadi: o‘quvchi o‘z imkoniyatlari chegarasidagi muammoni sherik yordamida hal etadi va shu jarayonda yangi bilim

ISSN 3030-3907

quradi. Anderson va Krathwohl (2001) ning qayta ishlangan Bloom taksonomiyasi esa ta’limda eng yuqori maqsad — tahlil, baholash va yangi g‘oya yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish ekanligi — ni ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Badiiy matnni idrok etish va talqin qilish masalasi ham alohida o‘rin egallaydi. Metodist Niyozmetovaning ta’birida: “Matn mazmunini tushunish, estetik kechinmalar bilan birgalikda analitik-sintetik faoliyatga olib keladi va bu badiiy idrokka yo‘l ochadi” Bu kuzatuv zamonaviy metodlarning nafaqat kognitiv, balki hissiy-estetik ta’lim maqsadlariga ham xizmat qilishini ko‘rsatadi. Professor Qozoqboy Yo‘ldoshevning ta’kidlashicha, adabiy asarni yaratish, idrok etish va tahlil qilish tashqi voqelikdan ko ‘ra shaxslarning fikr, tuyg‘u, qadriyatlar va e’tiqodlar tizimi bilan bevosita bog‘liq — bu holat adabiy ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan metodlarning zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot nazariy-tahliliy yo‘nalishda olib borildi. Tadqiqotda qo‘llaniladigan asosiy yondashuv — adabiyotlarni tizimli ko‘rib chiqish va qiyosiy tahlil. Tadqiqot uch ketma-ket bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda zamonaviy adabiy ta’lim metodlari va badiiy matn tahliliga oid o‘zbek hamda xalqaro manbalar o‘rganildi. Manbalar tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilindi: mavzuga bevosita aloqadorligi; ilmiy asoslilik; o‘zbek adabiyoti ta’limi kontekstiga tatbiq etilish imkoniyati. Ikkinchi bosqichda tanlangan manbalar mazmuni tahlil qilindi. Har bir metodning nazariy asosi, pedagogik-psixologik mohiyati, qo‘llanilish sharoiti va cheklovlari aniqlandi. An’anaviy va zamonaviy metodlarning bir qator mezonlar bo‘yicha qiyosiy tahlili amalga oshirildi: talabaning bilish faoliyati darajasi, mustaqil fikrlash imkoniyati, matn bilan ishlash chuqurligi, tarbiyaviy ta’sirchanlik va motivatsiya.

Uchinchi bosqichda tahlil natijalari umumlashtirildi. Zamonaviy metodlarning o‘zbek adabiyoti materiali misolida qo‘llanilish modellari ishlab chiqildi. Tadqiqot sof nazariy xarakter kasb etganligi sababli uning asosiy cheklovi empirik ma’lumotlar yetishmasligidir — bu kelajakdagi eksperimental tadqiqotlar uchun yo ‘nalish belgilaydi.

Muammoli ta’lim adabiyot darslarida talabaning bilish faolligini va mustaqilligini ta’minlaydi, uning ruhiyatiga, aqliy rivojlanishi hamda dunyoqarashi shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Muammoli ta’limning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda talaba oldiga bilim berishga yo‘naltirilgan savollar qo‘yish bilan birga, ma’naviyatini shakllantirish yo‘lida ham muammoli savollar muhim o‘rin egallaydi. Adabiyotda muammoli savol matematikadan tubdan farq qiladi: yagona to‘g‘ri javob ko‘zda tutilmaydi — bu esa har bir kitobxonning o‘z shaxsiy munosabatini bildirishi uchun makon ochadi.

ISSN 3030-3907

Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidan “Kumushbibi fojiasiga kim aybdor — Otabek, Zaynab, ota-onalar yoki davr?” tarzidagi savol bir nechta teng to‘g‘ri javobni ko‘zda tutadi; o‘quvchini matndan dalil izlashga, turli nuqtai nazarlarni solishtirish va o‘z pozitsiyasini asoslashga undaydi. Yoki Said Ahmadning “Ufq” romanidan “Yozuvchi Tursunboyga hamdard bo‘lyaptimi yoki uni qoralayaptimi?” savoli talabani muallifning badiiy niyatini tushunishga, matnning yashirin qatlamlarini ochishga majbur qiladi. Bu esa an’anaviy “kim? nima? qachon?” savollari bilan chegaralanib qolishdan tubdan farq qiladi.

Muammoli ta’lim adabiyot darslarida uch darajada amalga oshirilishi mumkin. Birinchi daraja — muammoli savol: yagona to‘g‘ri javob ko‘zda tutilmaydi, talaba matndan dalil izlaydi. Ikkinchi daraja — muammoli vaziyat: butun dars muammo atrofida tashkil etiladi. Uchinchi daraja — muammoli ta’lim tizimi: bir mavzu bo‘yicha bir necha dars muammo orqali bog‘lanadi, har bir dars oldingilardan kelib chiquvchi yangi savolni ko‘taradi. Muammoli ta’limning cheklovi ham e’tiborga olinishi zarur: u har bir mavzu uchun qulay emas va o‘qituvchidan katta tayyorgarlik talab etadi. Shuning uchun an’anaviy va muammoli metodlarni o‘rinli birlashtirish — kombinatsion yondashuv — maqsadga muvofiqdir.

Interfaol metodlar badiiy matn bilan faol ishlashni ta’minlaydi va talabalarni loqaydlikdan chiqaradi. “Fikriy hujum” metodining maqsadi talabalarning dars jarayonidagi faolligini oshirish, ularni erkin, mustaqil mulohaza yuritishga undash, hammani bir xil qolipda fikrlashdan qutqarish, ma’lum mavzu yuzasidan har xil fikrlarni to‘plash va masalaga ijodiy yondashuvni ta’minlashdir. Bu metodda aytilgan har bir fikr qayd etiladi; hech bir fikrni tanqid qilish, ularga kulish taqiqlanadi — bu talabada o‘z fikridan uyalmaslik va tashabbus ko‘rsatish muhitini yaratadi.

Adabiyot darslarida “Fikriy hujum” asar bilan tanishishdan oldingi bosqichda ayniqsa samarali. Masalan, Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini o‘rganishdan oldin “Chin sevgi uchun insonlar qanday qurbonlikka tayyor?” savolini o‘rtaga tashlash talabalarning shaxsiy tajribasi va qadriyatlarini uyg‘otadi; keyinchalik dostonni o‘qish esa o‘sha shaxsiy fikrlar bilan dialogda kechadi.

Ssenariy yaratish usulida talabalar asar epizodlarini dramatik ko‘rinishga o‘giradilar. Bu jarayon ulardan qahramonlar ruhiyatini, so ‘zlari ortidagi tuyg ‘ularni tushunishni va voqealar mantiqini ko ‘ra bilishni talab etadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asaridagi sahnalar asosida ssenariy yozish talabalarni Anvar va Ra’no obrazlarini shunchaki tavsiflab emas, ular nomidan fikrlab, his etib ko‘rishga o‘rgatadi. Bu esa badiiy matn bilan eng chuqur va shaxsiy muloqot shaklidir.

ISSN 3030-3907

Suhbat metodini adabiy ta’limning “yelvizak metodi” deb ataydi — chunki u talabaning mustaqil tafakkurini ta’minlovchi jonli muloqot shaklidir. Yaxshi suhbat savolining o‘ziga xos xususiyatlari bor: u keng qamrovli, o‘ylashga undaydigan va kashfiyotlarga yo‘l ochadigan bo‘lishi lozim. O‘qituvchining ovoz ohangi, pauza va sukut ham suhbat samaradorligini belgilaydi. Suhbat metodida savollarning mantiqiy aloqasi hal qiluvchi ahamiyatga ega: har bir savol oldingilardan kelib chiqib, talabani yangi kashfiyotga olib borishi kerak.

Evristik metod — talabaga tayyor bilim berish o‘rniga uni o‘zi izlab topishga yo‘naltiradi. O‘qituvchi savol orqali izlanish yo‘nalishini ko‘rsatadi, talaba esa taqqoslaydi, farazlar ilgari suradi va xulosalar chiqaradi. Suhbat metodidan farqli o‘laroq, evristik metodda qo‘shimcha bilim olishga yo‘naltiradigan savollar bilan to‘ldirilgan — o‘qituvchi xabardorlikni talab qiluvchi savollar qo‘ysa, talaba farazlarni ilgari suradi, taqqoslaydi va dalillar keltiradi.

Taqqoslash metodi adabiyot darslarida analitik fikrlashni rivojlantirishning eng samarali yo ‘llaridan biri. “O‘tkan kunlar” romanidagi Kumushbibi va Zaynab timsollarini qiyoslash, turli davrlardagi hikoyalaridagi ayol obrazlarini solishtirish, turli davr adiblarining muhabbat talqinlarini qiyosiy o‘rganish — bular inson shaxsini chuqur o‘rganishga, qahramon fazilatlarini ochishga o‘rgatadi. Shu bilan birga, taqqoslash metodi adabiy asarlar o‘rtasidagi mazmuniy va badiiy bog‘liqliklarni ko‘rish — adabiy tafakkurning eng yuqori ko‘rinishi — ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Modulli ta’lim texnologiyasida badiiy asar ustida ishlash mantiqiy tugallangan bo‘laklarga ajratiladi va har bir modul o‘z maqsadi hamda topshirig‘iga ega bo‘ladi. Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asarini modulli o‘qitish misolini ko‘radigan bo‘lsak, “Kattalar va bolalar dunyosi”, “Do‘stlik va mas’uliyat”, “Muhabbat va fidokorlik” kabi modullar alohida ishlansa, har bir o‘quvchi o‘z darajasida chuqur tahlilga kirishishi mumkin. Bu yondashuv asarni yuzaki bilishdan uning ma’noviy qatlamlarini anglab yetishiga ko‘maklashadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari zamonaviy metodlarning adabiy ta’limda bir qator muhim afzalliklarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Husanboyeva va Niyozmetova (2018) ning belgilagan tamoyili — adabiy ta’limda bilimdonlik emas, ma’naviyat ustuvorligi ta’minlanishi shart — zamonaviy metodlar orqaligina to‘laqonli amalga oshirilishi mumkin. An’anaviy metodlar bu maqsadga yetarlicha xizmat qilmagan, chunki ular bilim berishni birinchi o‘ringa qo‘ygan.

ISSN 3030-3907

Ilin texnologiyasi va Matjonov ta’limoti bir-birini to‘ldiradi: biri darsni shaxsiy savol-muammo atrofida qurishni taklif etsa, ikkinchisi kitobxonlik madaniyatini asosiy ko‘nikma sifatida ko‘taradi. Bu ikki yondashuv Vigotskiyning xalqaro konstruktivist nazariyalari bilan ham uyg‘un — o‘rganishni faol, ijtimoiy va muammoga yo‘naltirilgan jarayon sifatida tasvirlagan. Badiiy asarning hissiy ta’siri o‘zlashtirishni chuqurlashtiradi; zamonaviy interfaol metodlar aynan shu hissiy faollikni ta’minlaydi.

Zamonaviy metodlarni joriy etishda bir qancha amaliy to‘siqlar mavjud. Birinchidan, vaqt resursi: muammoli ta’lim va hamkorlik texnologiyasi an’anaviy ma’ruza usulidan ko‘ra ko‘proq vaqt talab qiladi. Ikkinchidan, o‘qituvchi tayyorgarligi: ushbu metodlarni samarali qo‘llash maxsus pedagogik ko‘nikma va dars loyihasini talab etadi. Uchinchidan, baholash tizimining muvofiqligi: an’anaviy imtihon formatlari ko‘pincha zamonaviy metodlar rivojlantirgan ko‘nikmalarni o‘lchamaydi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy metod va uslublar adabiy ta’lim jarayonida badiiy matn ustida ishlashning samarali pedagogik vositasi sifatida xizmat qiladi. Muammoli ta’lim talabada mustaqil fikrlash va shaxsiy munosabatni shakllantiradi; “Fikriy hujum”, ssenariy usuli badiiy matn bilan faol va chuqur muloqotni ta’minlaydi; suhbat, evristik va taqqoslash metodlari talabaning analitik tafakkurini rivojlantiradi; hamkorlik texnologiyasi esa o‘qituvchi-talaba munosabatini hokimlikdan sheriklikka aylantiradi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy metodlarni uyg‘un qo‘llash adabiy ta’lim jarayonida quyidagi asosiy afzalliklarni beradi: talabaning bilish faolligini Bloom taksonomiyasining yuqori darajalariga — tahlil, baholash, yaratish — ko‘tarish; ichki motivatsiya va shaxsiy munosabat shakllantirish; kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish; ta’lim jarayonini individualizatsiyalash. Shu bilan birga, zamonaviy metodlar adabiy ta’limning eng muhim vazifasi — adabiyot orqali shaxsni ma’naviy jihatdan tarbiyalash — ni to‘laqonli amalga oshirish imkonini beradi.

Xulosa o‘laroq, zamonaviy metod va uslublarning integratsiyasi adabiy ta’lim jarayonini boyituvchi, motivatsion va samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ular talabalarda tanqidiy tafakkur, interpretativ ko‘nikmalar, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantiradi; o‘qituvchilarga esa ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish va ularning kompetensiyalarini keng qamrovda rivojlantirish imkoniyatini beradi. Shu bois, zamonaviy metod va uslublar adabiy ta’lim sifatini

ISSN 3030-3907

oshirish, talabalarning faolligi va motivatsiyasini kuchaytirish hamda ularni zamonaviy ta’lim talablariga moslashga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Husanboyeva, Q., Niyozmetova, R. “Adabiyot o‘qitish metodikasi” — Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. — 355 b.
2. Abdullayev, A (2012). Pedagogik texnalogiyalar va innovatsiyalar. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi O‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining nashriyoti.
3. Shamsuddinova, F (2015). Adabiyot darslarida badiiy tahlilning o‘rni. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Tillayeva, R.T. Learning Analysis as A Driving Force of Literary Education // American Journal of Social Sciences and Humanity Research. — 2025. — Vol. 05, Issue 07. — P. 112-116.
5. Yo‘ldosh, Q. “Jilovlanmagan tafakkur mahsuli” — Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2023. — 628 b.
6. Nazarova, G (2010). O‘quvchilarga estetik tarbiya berishning metodik asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya.
7. Mukhamedova, R. Pedagogik texnologiyalar va metodlar: Adabiy tahlil usullari. — Toshkent: O‘zbekiston yoshlar nashriyoti, 2018.
9. Raximov, N. Badiiy matn tahlili va uning pedagogik ahamiyati. — Tashkent: O ‘qituvchilar malakasini oshirish markazi, 2016.
10. Mustafaev, D. Badiiy tafakkur va adabiy tahlil. — Toshkent: O‘zbekiston davlat pedagogika universiteti nashriyoti, 2014.
11. Vygotsky, L.S. Mind in society: The development of higher psychological processes. — Cambridge: Harvard University Press, 1978.

ISSN 3030-3907